



Tadqiqot.uz

**XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**

**SOHA LINGVISTIKASI: TILSHUNOSLIK  
VA TIBBIYOT INTEGRATSIYASINING  
MUAMMOLARI, YECHIMLARI HAMDA  
ISTIQBOLLARI**

**10-NOYABR  
2021**

**BUXORO, UZBEKISTAN**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**SOHA LINGVISTIKASI:**  
**TILSHUNOSLIK VA TIBBIYOT**  
**INTEGRATSIYASINING**  
**MUAMMOLARI, YECHIMLARI**  
**HAMDA ISTIQBOLLARI**  
**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**  
**materiallari**

*Buxoro, 10-noyabr, 2021-yil*

© Tadqiqot.uz

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL  
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**BUKHARA STATE UNIVERSITY**

**LINGUISTICS OF DIFFERENT  
FIELDS:  
PROBLEMS, SOLUTIONS AND  
PROSPECTS OF LINGUISTICS  
AND MEDICAL INTEGRATION**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL  
CONFERENCE**

**Bukhara, November 10, 2021**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО  
СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ  
УЗБЕКИСТАН**

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ОТРАСЛЕВАЯ ЛИНГВИСТИКА:  
ЗАДАЧИ, РЕШЕНИЯ И  
ПЕРСПЕКТИВЫ  
ЛИНГВИСТИКИ И  
МЕДИЦИНСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ  
КОНФЕРЕНЦИЯ**

**Бухара, 10 ноября 2021 г.**

**© Tadqiqot.uz**

***“Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.–Buxoro: Tadqiqot.uz, 2021.***

Buxoro davlat universiteti O`zbekiston Respublikasi oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi, O`zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi, O`zbekiston Respublikasi sog`liqni saqlash vazirligi, O`zbekiston Respublikasi tadqiqot.uz. markazi, Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti bilan hamkorlikda “Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o`tkazdi.

O`zbek, rus, ingliz tillaridagi mazkur konferensiya materiallarida tilshunoslikda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari va innovatsion g`oyalar tizimini shakllantirish istiqbollari; o`zbek tili tibbiyot leksikografiyasi va terminologiyasini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat; tibbiyot ta`limida lingvokulturologiya va psixolingvistikaning ahamiyati hamda dolzarbligi; tibbiy birliklarning lingvopoetik tadqiqi; amaliy filologiyani rivojlantirish kabi mavzular doirasida mulohaza yuritilgan.

**Mas`ul muharrir**

**filologiya fanlari doktori,  
professor Abuzalova M.Q.**

**Taqrizchilar**

**filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent Nazarova S.A.**

**filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent G`aybullayeva N.I.**

**tibbiyot fanlari doktori (PhD),  
dotsent Ixtiyarova G.A.**

**To`plovchi va nashrga  
tayyorlovchi**

**pedagogika fanlari nomzodi,  
professor Yuldasheva D.N.**

*Mazkur to`plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma`lumotlar hamda bildirilgan fikr hamda mulohazalarga mualliflarning o`zlari mas`uldirlar.*

**© Buxoro, Tadqiqot.uz, 2021**

Shuningdek, tafakkurga chorlovchi quyidagi “Mulohaza va munosabatlar” jadvalidan foydalanib, tibbiyotga doir bilimlarni ona tili vositasida bilimlarni mustahkamlab olamiz.

MULOHAZALAR	MUNOSABATLAR
<i>“Agar dunyoda chang va g'am bo'lmaganda edi insonlar 100 yil yashagan bo'lur edi” (Ibn Sino)</i>	
<i>Tabobat hamma san`atlar ichida eng oliyjanob san`atdir. (Gippokrat)</i>	
<i>“Sog'lom tanda, sog` aql” (Xalq maqoli)</i>	

Xulosa shuki, Ibn Sino psixogigiya deb ataluvchi fanga asos solar ekan, kasalliklarning oldini olishda tarbiyaning ahamiyatini o'z asarlarida ko'rsatib o'tadi va “Tarbiya erta bolalik davridan boshlanishi kerak”[1], degan edi. Shunday ekan bu tarbiyani bevosita ona tili vobastaligi, yuqorida korsatilgan interaktiv metodlar asosida yosh avlodning tibbiy madaniyatini rivojlantirish muhim sanaladi. Yuqorida taklif qilingan integrativ tamoyilga asoslangan metodlar orqali ta'lim oluvchida:

- tibbiy nutqi shakllanadi;
- tibbiy madaniyat rivojlanadi;
- tibbiyotga doir zaruriy atama va tushunchalar borasida o'ziga xos dunyoqarashiga ega bo'ladi;
- global zamonda o'z salomatligiga befarq bo'lmagan shaxs sifatida kamol topishida yetarlicha ma'lumotlarga ega bo'ladi. Zero, ta'lim oluvchi fikrlash, idrok qilish, nutqini ravon va savodli yetkaza olishi orqali jahon andozalariga mos, raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Ibodullayev I. Tibbiyot psixologiyasi. Darslik. – Toshkent:Yangi avlod , 2009.
2. Yo`ldosheva D. N., Ashurbayeva R.Q. Ona tili ta'limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Metodik qo'llanma.– Toshkent: Turon zamin ziyo, 2018.
3. ziyonet.uz O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, O'zbekiston. 2021.

#### **Taqlid so`zlarning tibbiyotda qo`llanilishi**

**Istamova Sohiba Izatillo qizi\***  
**10.5281/zenodo.5686077**

**Annotatsiya:** mazkur maqolada tilshunoslik va tibbiyot sohasining aloqadorligi, taqlid so`zlarning tibbiyot sohasida qo`llanilish doirasi va ahamiyati tibbiy lug'atlar asosida o'rganilib, tahlil qilingan.

---

\* Buxdu I bosqich magistranti

**Kalit so'zlar:** *tabobat, farmatsiya, hiqichoq, qaltirama, xurrak, yo'tal turlari, qu-qu yo'tal, xirillash, alomatlar*

Bugungi kunda tilni lingvistik nuqtayi nazardan emas, balki boshqa fanlar, jumladan, psixologiya, mantiq, sotsiologiya, matematika, fizika, informatika va axborot texnologiyalari, dasturlash, san'at, tibbiyot sohalari bilan bog'liqlikda o'rganish borasida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Natijada tilshunosligimizda psixolingvistika, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, kompyuter lingvistikasi, tibbiy lingvistika kabi bir qancha sohalar shakllandi va rivojlandi.

Tibbiyot va tilshunoslik o'rtasidagi munosabatlarning chuqur tahlil qilinishi bu ikki sohaning bir-biri bilan naqadar uzviy bog'liq ekanligini yana bir bor ko'rsatib berdi. Shifokor tibbiy bilimlarni chuqur o'rganish bilan bir qatorda tilshunoslik sohasidagi bilimlarga ega bo'lishi katta ahamiyatga ega. Bemor bilan nutqiy munosabatga kirishar ekan, bevosita uning ongiga ta'sir o'tkazadi. Xasta kishining ko'zlarida sog'ayib, salomatligi tiklanishi, oyoqqa turishiga bo'lgan ishonch hosil bo'lishi shifo topishning kalitidir. Bu ishonchni bemorlarda hosil qilish esa shifokorning nutqiga, mahoratiga bog'liqdir.

Bundan tashqari, tibbiyot xodimi insonlar bilan muloqot jarayonida tibbiy atama, tibbiy terminlardan emas, iloji boricha, tibbiy perifrazalardan unumli foydalanishi, kasalliklarni tushuntirish, kasalliklar haqida axborot berishda esa oddiy, tibbiy atamalardan xabardor bo'lmagan insonlarga xalq tiliga yaqin, tushunarli muqobillarini qo'llash lozim.

Tibbiyotda turli kasalliklarni nomlash va ular haqida ma'lumot berish, kasallik alomatlarini izohlashda taqlidlar va ulardan hosil qilingan so'zlarning qo'llanilishi unumli. Tibbiy lug'atlarda taqlid so'zlardan kelib chiqqan terminlar anchagina:

**Hiqichoq** – beixtiyoriy, odatda, bir tekisda takrorlanuvchi nafas olish bo'lib, o'ziga xos tarzda ovoz chiqadi, diafragma – ko'krak va qorin bo'shliqlarini ajratib turuvchi mushak pardasining to'satdan qisqarishi sabab bo'ladi [1]. **Qaltiroq** (sin. qaltirash) butun gavdaning yoki uning bir qizmining, masalan, ko'krakdan yuqori qismining ixtiyorsiz, bir maromda, bir xil tebranma harakati; giperkinez. **Qarilik qaltirog'i** – asosan bosh, pastli jag', qo'l barmoqlarining aralash qaltirashi; harakat aktlarigasezilarli ta'sir ko'rsatmaydi; aksariyat keksa va qariyalarda uchraydi.

**Xurrak kasalligi** - uyqu vaqtida toraygan nafas yo'llari orqali havo oqimlari o'tishi barobarida halqum yumshoq tuzilmalarining bir-biriga urilishi chog'ida yuzaga keluvchi xurullagan, chiyillagan ovozlar bilan kechadi. Ba'zan xurrak mutlaqo sog'lom odamlarda ham bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda **xurrak xavfli kasallik** – **uyqu apnoye sindromining** alomatlardan biri sifatida ham namoyon bo'ladi.

Xalq tiliga yaqin bo'lishi, tibbiyot tilidan bexabar odamlarga ham tushunarli bo'lishi uchun ayrim kasallikka oid atamalarni tushunarli atamalar bilan ifodalash holatlari ham uchraydi. Bunday tibbiy atamalar ham leksikamizda uchraydi. Aksariyat lug'atlarda bunday terminlar izohi berilayotganda “xalq tabobatida”, “sinonimi” kabi izohlari beriladi, yoki aksincha, “tibbiy farmatsiyada”, “tibbiyotda”, “tibbiy texnikada”, “farmatsiyada” kabi izohlar orqali ularning ilmiy muqobili ko'rsatiladi :

**Qaltirama** – xalq tabobatida – gavda biror qismi (ayniqsa, qo’lpanja)ning to’xtovsiz, muttasil qaltirab, titrab turish kasalligi; ilmiy tibbiyotda **Parkinson kasalligining** belgisi sifatida qaraladi.


**Dovdirash** – 1.Koordinatsiyasi buzilgan holatda yurish; gandraklash, alpon-talpon harakatlar qilish.2.Fikrlar oqimi buzilgan, nutq ravonligi izdan chiqqan holat; telba-teskari, chalkash-chulkash gaplar gapirish kabi sindromlar bilan yuzaga chiqadi.3.Uyquda valdirash.

**Xirillash** (-lar) – nafas yo’llarining torayishidan yoki ularda patologikajralmalar mavjudligidan yuzaga keladigan nafas shovqinlari; ular o’z tabiatiga ko’ra, asosan: nam xirillashlar, quruq xirillashlar va charsillovchi xirillashlarga tafovut qilinadi [2].

**Afoniya** – (gr. A- - yo’q + gr. phōnē – tovush) – shivirlab gaplashish saqlanib qolgani holda ovoz jarangdorligining yo’qolishi [3].

Taqlid so’zlar turli xil kasalliklarning izohini berishda, ularni tavsiflashda ham keng qo’llaniladi. Yo’tal - ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz (reflektor) ravishda kuchli zarb bilan yuzaga chiqadigan tovushli turtkisimon nafas chiqarish; nafas yo’llaridagi patologik jarayonlar.

“Tibbiy terminlarning izohli lug’ati”da yo’talning 2 xil tuzi mavjudligi ko’rsatilgan:



Quruq yo’tal (sin. balg’amsiz yo’tal) – yo’talganda balg’am ajralim cjiqmaydigan yo’tal. Nam yo’tal (sin. balg’amli yo’tal) – yo’talganda balg’am ajralib chiqadigan yo’tal.

Bu ikki turning ham bir necha xil ko’rinishlari mavjudligi haqida ma’lumot berilar ekan, quruq yo’talning ko’rinishlaridan biri sifatida “Qu-qu” yo’tal turi ham keltiriladi. Bu nomlanish kasallikning kechish jarayonidagi yo’talning davomiyligi, kuchliligi bilan bog’liq bo’lib, shu jarayonda yuzaga keladigan qu-qu tovushga taqlidi ushbu yo’tal turini nomlashda asos qilingan va unga quyidagicha izoh beriladi:

“Qu-qu” yo’tal – uzuq-yuluq, qisqa-qisqa, qattiq quruq yo’tal; hiqildoq yoki kekindak sohasida patologik jarayon kechganda yuzaga chiqadi.

Lug’atlarda, odatda, tibbiy terminologiyaga oid ilmiy ommabop matnlarda taqlidlar va ulardan hosil qilingan so’zlar keng qo’llanilishi orqali bemorlarning turli kasalliklar haqidagi tasavvurlarning shakllanishi osonlashadi, tushunarli bo’ladi. Bunday hollarda ko’pincha qu-qu, xur-xur, qalt-qalt kabi taqlid so’zlar,



qaltiramoq, xirillamoq, lo`qillamoq, g`uvillamoq, shang`illamoq singari taqlid so`z asosli fe`llardan foydalaniladi. Masalan, arterial gipertenziya kasalligi alomatlarini tavsiflashda shu kabi so`zlardan foydalanilgan:

Goho bemor bosh aylanishi, quloq shang`illashi, (g`uvullagan yo jaranglagan tovush), ko`z oldida uchqunlar paydo bo`lishi, ko`zning xiralashishidan bezovta bo`ladi.

Yoki:

Hiqichoqda ko`pincha xiyqillagan ovoz chiqishi yoki kekirik kelishi mumkin; goho kishi qusib ham yuboradi, chunki bu paytda oshqozon shillig`i va uning chidamli spazmasi joyidan qo`zg`alishi mumkin.

Adneksit (bachadon o`simalari yallig`lanishi), aritmiya (yurak urishining chastotasi, maromi va izchilligining buzilishi), ateroskleroz (yirik va o`rta arteriyalarning surunkali kasalligi), meningit (miya pardalari yallig`lanishi), gripp, panaritsiy (xasmol) kabi kasalliklarning alomatlarini keltirishda ham qaltirash, dukullab urish, lo`qillab og`rish, zirqirab og`rish kabi so`zlar qo`llaniladi.

Taqlid so`zlar asosida hosil qilingan **organ nomlari** ham tilimizda mavjud bo`lib, bunday nomlanish organ va u orqali hosil qilinadigan tovush bog`liqligi asosida yuzaga kelgan:

*Hiqildoq* (sin.bo`g`iz) – IV – VI bo`yin umurtqalarining ro`parasida halqum (q.) oralig`ida joylashgan, tog`ay, boylam va mushaklardan tarkib topgan nafas o`zosi; ovoz shu a`zoda hosil bo`ladi; nafas yo`lining burun bo`shlig`idan keyingi qismi.

*Bag`baqa* (sin. baqbaqa) – iyak ostidagi osilinqirab turgan so`ldim et.

Yosh davrlarini izohlashda, bolalarning ma`lum davrdagi nutqiy faoliyati bilan bog`liq bo`lgan jarayonlarni izohlashda, shu davrga nom berishda ham taqlid so`zlardan unumli foydalanilgan:

*Bildiroq* – (sin. qaqajon) – tibbiyotda – endilikda tili chiqib biyrongina bo`lib qolgan bola.

*Bildiroqlik* – bolalarning tilga bo`lgan qobiliyatidan xabar beruvchi darakchi.

Til nafaqat muammola vositasi, balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixini ko`rsatuvchi oynadir. Tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demakdir. Axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgan bir davrda, tilimizni rivojlantirish uchun birinchi navbatda, tilshunosligimizni boshqa sohalar bilan bog`liq holda tadqiq qilishimiz muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, tilimizni tibbiyot sohasi bilan birga tadqiq qilar ekanmiz, meditsina sohasidagi international terminlar bilan bir qatorda ularning xalqona variantlarini faollashtirishga harakat qilishimiz lozim. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta`birlari bilan aytganda, “Bugungi kunda biz yangi O`zbekistonni, yangi Renessans poydevorini barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga erishishda, hech shubhasiz, ona tilimizning hayotbaxsh qudratiga tayanamiz”.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Асраров А., Усмонходжаев А., Садикова З., Билолов Э., Ахматов А., Маткулиев Ў., Асроров Ў., Омаров Х., Сафаева С. Табобат олами – касалликлар ва уларни даволаш йўллари. – Т.: “NOSHIR”, 2012.
2. Қосимов А. Тиббий терминларнинг изоҳли луғати. I жилд. – Т.: “Абу Али ибн Сино”, 2003.

3. Қосимов А. Тиббий терминларнинг изоҳли луғати. II жилд. – Т.: “Абу Али ибн Сино”, 2003.
4. Abuzalova M., Qobilova A. [www.uzmuxabarlari.uz](http://www.uzmuxabarlari.uz)
5. Abuzalova M., Sobirova D., Ahmadova U. <https://www.psychosocial.com/article-category/issue-3-volume-24>
6. Abuzalova M., G'aybullayeva N. Journal of Contemporary Issues in Business and Government, 2021, Volume 27, Issue 1, Pages 828-832. [https://cibg.org.au/article\\_7795.html](https://cibg.org.au/article_7795.html)

## **Ўзбек ва инглиз тили тиббий перифразаларининг когнитив-морфологик хусусиятлари**

**Кобилова Азиза Бахриддиновна\***  
**10.5281/zenodo.5686099**

**Annotation:** The article is devoted to the study of cognitive-morphological features of Uzbek and English periphrases. The article analyzes formation of periphrases according to the parts of speech. The article also distinguishes the use of periphrases in two unrelated languages.

**Keywords:** *periphrasis, morphology, cognitive, formation, analyses, distinguish, parts of speech, language*

Ўзбек ҳамда инглиз тилшунослигида перифразаларнинг грамматик хусусиятлари бирмунча тадқиқ этилган [Опахина, 2006: 22]. Жумладан, тилшунос олим И.Умиров номзодлик диссертациясининг иккинчи бобини перифразаларнинг морфологик ва синтактик хусусиятларини ёритишга бағишлайди. Олимнинг фикрига кўра: «Нутқда от туркуми, феъл каби, бошқа сўз туркумларига нисбатан фаол қўлланади. Айниқса, парафразаларни ўрганиш жараёнида бу фикрнинг тўғри эканлиги яна бир қарра исботланди. Аниқроғи, шахс, предмет, нарса-ҳодисаларнинг тасвирий номи бўлган парафразалар морфологик жиҳатдан, асосан, от туркумидан ташкил топади [Умиров, 1996: 14].

Бизнингча, перифразаларнинг у ёки бу сўз туркумига мансублиги уларнинг қайси сўз туркумидаги сўз билан синонимик муносабатга киришиши (ёки перифразанинг қайси сўз туркумидаги сўзни қайта номлаши)га қараб белгиланади [Кобилова, 2021: 1637].

Тадқиқ жараёнида тиббий перифразаларнинг асосан от сўз туркумига мансуб сўзлар ўрнида қўлланганига гувоҳ бўлдик: *Стевия – «ўзбеклашган гиёҳ»* («Шифо-инфо» газетаси, 2018. 2-сон.); *Салмонеллэз –иссиқ-совуққа чидамли бактерия»*(«Даракчи» газетаси, 2019. 9-сон.); *Ўпка – кислород ташувчи аъзо қандай тузилган?* («Шифо-инфо» газетаси, 2017. 127-сон.); *Баҳор меваси – тут* («Даракчи»газетаси, 2019. 17-сон.); Иммунитет –*ҳимоя воситалари*. Асаби бузилган тананинг *ҳимоя воситалари* заифлашиб, қон босимининг ошиши (гипертония), кўкрак қисиши (стенокардия) каби

---

\* БухДУ Инглиз тилшунослиги кафедраси катта ўқитувчиси

## МУНДАРИЖА

<b>Rasmiy ochilish. Tabriklar</b>		
<i>Hamidov O.H.</i>	<i>Rasmiy ochilish</i>	<b>6</b>
<i>Inoyatov A.Sh.</i>	<i>Tibbiyot va til mushtarakligi</i>	<b>8</b>
<i>Daminov M.I.</i>	<i>Til va madaniyat</i>	<b>9</b>
<i>Qahhorov O.S.</i>	<i>Davlat tili - millatning tirik nafasi</i>	<b>10</b>
<i>Xuseynova A.A.</i>	<i>Soha lingvistikasini rivojlantirish – davr talabi</i>	<b>11</b>
<i>Aslonova E.S.</i>	<i>Государственный язык – неотъемлемая часть духовной национальной культуры государства</i>	<b>12</b>
<b>Yalpi majlis ma’ruzalari</b>		
<i>Mengliyev B.R.</i>	<i>Tilshunoslik samara bersin.</i>	<b>15</b>
<i>Abuzalova M.Q.</i>	<i>Lingvistika va tibbiyot hamkorligi ijtimoiy zarurat sifatida</i>	<b>17</b>
<i>Чудакова В.П.</i>	<i>Психология пациента и этика врача</i>	<b>22</b>
<i>Ixtiyarova G.A.</i>	<i>Ginekologik kasallikni ifodalovchi tibbiy terminlar talqini</i>	<b>25</b>
<i>Мўратбек В.Қ.</i>	<i>Professor Q.Жўбанов уеҗбектериндеги сөзтапым негиздери (Q.Жўбанов сөзтапымындаг ‘ы лексикология мәселелери)</i>	<b>27</b>
<i>Adilova S.A.</i>	<i>Tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasi (AQSHdagi ayrim universitetlar misolida)</i>	<b>36</b>
<i>Rajabov D.Z.</i>	<i>O‘zbek tilini tadqiq etishda yangicha yondashuvlar</i>	<b>40</b>
<b>1-sho‘ba. Tilshunoslikda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari va innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish istiqbollari</b>		
<i>Ahmedov B.Y.</i>	<i>Rus va o‘zbek tillarida so‘zlarning o‘zaro tobe bog‘lanishi: boshqaruv kategoriyasi</i>	<b>42</b>
<i>Akhmedov A.R. Po‘latova S.M.</i>	<i>O‘zbek shevalarini lingvo-geografik xaritalashtirish</i>	<b>46</b>
<i>Adizova N.I.</i>	<i>Leksik birliklarning milliy o‘zlik ruhini ifodalashdagi roli (Erkin Vohidov dostonlari asosida)</i>	<b>50</b>
<i>Elova D.Q.</i>	<i>O‘zbek tili milliy korpusi uchun so‘zlashuv uslubiga xos so‘zlarni teglash masalasig oid</i>	<b>55</b>
<i>Fayazova D.S.</i>	<i>Methodological approach in teaching process</i>	<b>61</b>
<i>Fayazova D.S. Shirinboyeva B.M.</i>	<i>Empowering languageskills through modern methods</i>	<b>65</b>
<i>Jo‘rayeva D.R. Qo‘shayeva N.E.</i>	<i>O‘quvchilar va aholi imloviy savodxonligini rivojlantirishning dolzarb masalalari</i>	<b>68</b>
<i>Kurbonov A.M.</i>	<i>Tasks of effective use of the uzbek language</i>	<b>71</b>
<i>Mengliyev B.R. Hamroyeva Sh.M. Elova D.Q.</i>	<i>Qirg‘iz va yoqut tili avtomatik morfoligik tahlil vositalari tajribasidan</i>	<b>75</b>
<i>Muxtorov E.M.</i>	<i>Vrach kasbiy mahorati tuzilmasida kommunikativ kompetentlikning o‘rni</i>	<b>79</b>
<i>Мўратбек Б.Қ. Саламат Э.С.</i>	<i>Этнолингвистика – этностық болмысты ұлттық тіл арқылы танып білу(Аймақтық лексика негізінде). Ethnolinguistics- knowledge of ethnic identity through the national language (based on regional vocabulary).</i>	<b>84</b>
<i>Orifjonova F. Orifjonova M.</i>	<i>Critically discussing student teachers' ideas</i>	<b>88</b>

<i>Ortiqova G. H.</i>	<i>Harakat tarzi shakllari va nutq</i>	<b>93</b>
<i>Saduaqas N.A.</i> <i>Ibragimov T.A.</i>	<i>Qazaq tilindegi dybyys saykestigi turaly</i>	<b>97</b>
<i>Sayfullayeva R.R.</i> <i>Abuzalova M.Q.</i>	<i>Til – millat ma'naviyati va madaniyati takomilining bosh masalasi</i>	<b>102</b>
<i>Tosheva D.A.</i>	<i>The use of examples of folklore in the description of the person</i>	<b>104</b>
<i>To'yeva Z.N.</i>	<i>Bayon –o'quvchining yozma nutqini tartibga solish vositasi</i>	<b>111</b>
<i>Salomova M.Z.</i>	<i>The role of teaching speaking through technology</i>	<b>116</b>
<i>Shoimqulova M.Sh.</i>	<i>The integration of technology into language teaching</i>	<b>121</b>
<i>Sharipova F. N.</i>	<i>Integrating technology in teaching listening skills</i>	<b>125</b>
<b>2-sho'ba. O'zbek tili tibbiyot leksikografiyasi va terminologiyasini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat sifatida</b>		
<i>Nazarova S. A.</i>	<i>So'z birikmasi – tibbiy atamalar “bunyodkori”</i>	<b>131</b>
<i>Nazarova D.G.</i>	<i>Lexicographic problems of the uzbek language</i>	<b>136</b>
<i>Rajabov D.Z.</i>	<i>Tibbiy birliklarning elektron lug'atlari xususida</i>	<b>139</b>
<i>Sobirova D.R.</i>	<i>Qisqalik – samarali tibbiy reklama yaratishning muhim omili</i>	<b>141</b>
<i>Toirov G.I.</i>	<i>Shifokor nutqining lingvistik xususiyatlari</i>	<b>146</b>
<i>To'rayeva Sh.</i>	<i>So'z birikmasi tibbiy terminlar tizimida</i>	<b>150</b>
<i>Xamidova G.Y.</i>	<i>Особенности преподавания медицинской терминологии на уроках русского языка как иностранного</i>	<b>153</b>
<i>Xojiyeva M. Y.</i>	<i>Shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalarining tibbiyotda qo'llanilishi</i>	<b>157</b>
<i>Yokubova Sh. Y.</i>	<i>Tibbiy matnlarda obyektli birikmalarning voqelanishi</i>	<b>161</b>
<i>Yuldasheva D.N.</i> <i>Chullieva G.T.</i>	<i>Тонина и тон звука как медицинский эфемизм</i>	<b>164</b>
<i>Navro'zova M.G'.</i>	<i>Tibbiy birliklar tadqiqi</i>	<b>172</b>
<b>3-sho'ba. Tibbiyot ta'limida lingvokulturologiya va psixolingvistikaning ahamiyati hamda dolzarbligi</b>		
<i>Ahmadova U.Sh.</i> <i>Bozorova G.Z.</i> <i>Mirjonov N.N.</i>	<i>Tibbiyot sohasida perifrazarlar</i>	<b>174</b>
<i>Абдуллина А.Б.</i>	<i>Мұқағали Мақатаев әңгімелеріндегі психологизм</i> <i>Psychologism in the stories of mukagali Makatayev</i>	<b>179</b>
<i>Adizova Nigora</i> <i>Adizova Nodira</i>	<i>Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari</i>	<b>182</b>
<i>Gafurova N.T.</i> <i>Hikmatov N.I.</i>	<i>Значение языка в развитии высшего образования</i>	<b>185</b>
<i>G'aybullayeva N.I.</i>	<i>Tibbiy lingvistik birliklar platformasining amaliy ahamiyati</i>	<b>190</b>
<i>Hayitov Sh.A.</i>	<i>Alisher Navoiy tib ilmi va tabiqlar haqida</i>	<b>195</b>
<i>Haydarova N.A.</i>	<i>The importance of metaphors usage in medical discourse</i>	<b>200</b>
<i>Jumayeva M.</i>	<i>O'zbek xalq maqollarida tibbiy birliklarning qo'llanilishi</i>	<b>204</b>
<i>Kobilova F.T.</i>	<i>The problems of research on methods of foreign filology teaching with innovative approach</i>	<b>207</b>
<i>Raximov M. M.</i>	<i>Linguotherapy as the method of treatment</i>	<b>211</b>
<i>Xalikova M.X.</i> <i>Teshayeva M.Sh.</i>	<i>Shoshiyning tibbiyot ilmiga bag'ishlangan “qonuni bositiy” asarida mavjud ayrim tibbiy atamalarning lingvistik tahlili</i>	<b>214</b>
<i>Niyozova M.F.</i>	<i>Davriy nashrlarda tibbiyotga oid tasviriy vositalarning</i>	<b>218</b>

	<i>qo'llanilishi</i>	
<b>4-sho'ba. Tibbiy birliklarning lingvopoetik tadqiqi</b>		
<b>Yusupova D.Y.</b>	<i>Tilshunoslikda evfemizm hodisasi talqini (H.Xudoyberdiyeva she'rlari asosida)</i>	<b>222</b>
<b>Қалиев Е.М.</b>	<i>«Ант» драмалық дастанының тарихи және фольклорлық негізі Historical and folklore basis of the dramatic saga "The Oath"</i>	<b>228</b>
<b>Yuldasheva M.M.</b>	<i>Tibbiy pedagogik yo'nalish talabalarida milliy an'analar asosida bag'rikenglikni rivojlantirish</i>	<b>232</b>
<b>5-sho'ba. Amaliy filologiyani rivojlantirish - davr talabi</b>		
<b>Ashurbayeva R.Q.</b>	<i>Yosh avlodda tibbiy madaniyatni rivojlantirishda ona tili fanining ahamiyati</i>	<b>237</b>
<b>Istamova S. I.</b>	<i>Taqlid so'zlarning tibbiyotda qo'llanilishi</i>	<b>241</b>
<b>Qobilova A.B.</b>	<i>O'zbek va ingliz tili tibbiy perifrazalarining kognitiv-morfologik xususiyatlari</i>	<b>245</b>
<b>Toshtemirova S.</b>	<i>Tibbiyot lingvistikasi: vujudga kelishi, dolzarbligi, maqsad va vazifalari</i>	<b>248</b>